

Navbahor RUSTAMOVA

OQ ATIRGULIM

She`rlar

MAJDURIY NUSXA

Qarshi
«Nasaf» nashriyoti
2013

84(59)7-9j5. agos.

UO`KO`z2

KBK 84(50`zb)-3

R91

Navbahor Rustamova umidli ijodkor yoshlarimiz vakilasi. Uning mashqlarida ko`ngilga yaqin fikrlar talaygina.

Umid qilamizki, Navbahor qizimiz bundan-da go`zal she`rlar ijod qiladi.

HO 41926
0

R $\frac{4702620202-65}{376(07)2013}$ 65-2013 © N. Rustamova, 2013 yil.

© "Nasaf" nashriyoti, 2013 yil.

ISBN 978-9943-18-162-5	Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston MA
2013/132 A 10185	

G'ANIMAT DUNYODA YAXSHIDEK YASHA

Qoyasan urinma tog' bo'lolmaysan,
Xasis bo'lib hech qachon bog' qilolmaysan.
G'ururing cho'qqisin chog' qilolmaysan,
G'animat dunyoda yaxshidek yasha,
Oshingni halollik bag'rida osha.
Nokas bo'lib obro'ying to'kmagin yerga,
O'ylama har narsa topilmas zo'rga,
Kun kelar sig'mayin qolasan go'rga,
Ganimat dunyoda yaxshidek yasha,
Oshingni halollik bag'rida osha.
Yer kavlab nihol ek o'zing bog'ingdan,
Niholing so'lmasin sening dog'ingdan.
Yaxshiga joy bergin o'z quchog'ingdan,
G'animat dunyoda yaxshidek yasha,
Oshingni halollik bag'rida osha.

YOSHLIKNI ASRANG

Yoshlikni asrang vaqt g'animat,
Bu davr bog'idan yaxshi iz qolsin.
Hech qachon qoqilmang yiqilmang sira
Baxtingiz qalblarga quvonchlar solsin.
Yoshlikni asrang, o'tarda ketar,
Besh kurilik dunyoda o'tib ketasiz.
O'sha vaqt yoshligim bekor o'tdi deb,
Butun kungillarni yarim etasiz.
Yoshlikni asrang o'tkinchi bu kun,
Guldayin umringiz, erta so'lmasin.
O'qingiz izlaning, siz olim bo'ling,
Bu yoshlik davrida, armon qolmasin.

O'ZBEK MILLATI

To'rt fasli go'zaldir o'zbek diyorin,
Dehqonlar yashnatar avji bahorin.
Ko'klarga ko'tardik biz iftixorin
Dunyoda tanhodur millati o'zbek.
Bu vatan bizlarning sharaf-shonimiz
Bu vatan bizlarning g'urur orimiz
U uchun fidodur hatto jonimiz
Dunyoda tanhodur millati o'zbek.
Tarixda ham buyuk bo'lmish avlodi
Yer yuzida kim bor Temur bobomdek
Botirligi meros ajdodlariga
Dunyoda tanhodur millati o'zbek. ♦
Yer yuzin yoritgan aql mash'ali,
Ibn Sino, Beruniy, Mirzo Ulug'bek.
Vorislari ulardek bo'ladi hali,
Dunyoda tanhodur millati o'zbek.

MUSHTARIY

Musaffo osmonga termulib,
Unutmagin meni hech qachon.
She'rim ko'ngling chirog'i bo'lsin,
Tuyg'ular to'fondek toshgan on.
Armoning dunyoda bo'lmasin,
Ruhingni cho'ktirma ey dilbar.
Iliq tuyg'ular o'zgarmasin,
Yiroq bo'lsakda necha yillar.

O'N BESHINCHI QOR

Go'dak edim ulg'aydim mana,
Hayron qoldim dunyo buncha tor.
Qor yog'moqda yil o'tib yana,
Bu men uchun o'n beshinchi qor.
To'g'ri, sovuq, dalada ayoq,
Qalbim iliq orzular bisyor.
Bir tomonda o'tmishim bo'lsa,
Bir tomonda kelajagim bor.
Ko'zim yumdim xotiralarga,
Beboshligim qolmoqda ortda.
Unutib tez erkaligimni,
Ko'nikaman yangi hayotga.
Kuni kelsa o'tmishni eslab,
O'z ko'nglimni qilay baxtiyor.
Bu men uchun oddiy qor emas,
Men uchun bu o'n beshinchi qor.

* * *

Behuda umringni o'tkazma zinhor
Dunyoga keldingmi, yulduzdek porla
Zukkolik haqiqiy hayot sohili
Shoshilgin o'znigni u tomon chorla,
Axir bilimdonga omad boqadi,
Baxti ochilmadi atirgul misol
Bilimsiz to'pori kimga yoqadi
Barcha orzulari bo'ladi xayol
Biliming ziyoda bo'lsa agarda
Boshingni ko'tarib yurasan mag'zur,
Ilmdan kechmagil boylklar uchun
Tafakkur boshingdan sochar yorug' nur.

ORZULARIM

Orzularim xazon bo'lsang ham,
Bardoshginam to'zon bo'lsang ham.
Umidlarim bir on bo'lsa ham,
Meni sira tark etmangizlar.
Tark etsangiz hayot na kerak
Keyin menga ishonmas yurak.
Sizlarsizku qalbimga bezak,
Meni sira tark etmangizlar.

BAHOR KELSA

Bahor kelsa hatto samoda qushlar,
Ul go'zal bahorning husnin olqishlar.
Guliston zamindan yaratib doston,
Bulbullar kuylashib ko'ngilni xushlar.
Naqadar lazzatli bahorda hayot,
Xayolni o'g'irlar gul yaproqlari.
Mehr deb nom olgan tuyg'uni uyg'ot,
Bahorda uyg'ongan daraxt singari-
Baxmalga burkangan tog' etagida,
Farishta misoli ohu ko'rinur.
Anhor bo'yidagi chinor tagida,
Tabiatdan do'stim, zavqlar olib tur.

XAYR SINFDOSH

Yoshligimiz tez o'tib ketdi,
Quvonch to'la ko'zlarimga yosh.
Kelajakka qadam qo'yamiz,
Xayr endi, aziz sinfdosh,
Yaxshi-yomon odatimizga
Bizlar berdik to'qqiz yil bardosh,
Har tomonga uchar kunimiz,
Keldi bugun, xayr sinfdosh.
So'nggi qo'ng'iroq yangragan chog',
Deymiz: "chalinmay tur bag'ritosh.
Ustozlardan duo oldik biz,
Ayrilamiz xayr sinfdosh.
Dildan chiqar eng ezgu tilak,
Doim bo'lsin senga baxt yo'ldosh.
Kelajakka talpinar yurak,
Xayr endi, aziz sinfdosh.

SEN MENING BORLIG‘IM, VATAN

Gul bo‘lib ulg‘aydim bag‘ringda chaman,
Zavqlanib dala-yu bog‘laring kezdim.
Shunda yuragimda bir hisni sezdim,
Sen mening borlig‘im ekansan, vatan.
Sendan olislarga ketmam hech qachon,
Vatandan uzoqda yonadi inson.
Boylikka alishmam bir kaft doningni,
Sen mening borlig‘im ekansan, vatan.
Tongda gul yuzidan o‘pganda shabnam,
Jamolingdan hayratda qoldiku olam.
Qayerda, qay yurt bor sen kabi ko‘rkam,
Sen mening borlig‘im ekansan, vatan.

O'ZBEKISTONIM

Asrlar qa'ridan o'tgan bo'stonim,
Istiqlol kunini kutgan bo'stonim.
Qancha alamlarni yutgan bo'stonim,
O'zbekistonim!
Senda tug'ildimmi senda o'laman,
Sen uchun ochilib senda so'laman.
Seni ta'riflab shoir bo'laman,
Onajon diyorum O'zbekistonim. -
Bunchalar serqirra serquyosh zamin,
Boshim ko'kka yetar poying o'psam men.
Seni sevishimga bo'laman amin.
Onajon diyorum O'zbekistonim,
Kaminaga o'zing yaqin dilcash,
Orzu kabi quvnoq do'sdek hazilkash.
Qancha so'ylasam ham bitmas dostonim,
Jonajon diyorum -O'zbekistonim.

BAHOR, SENI QUMSAR KO'NGILLAR

Bahor, seni qumsar ko'ngillar,
Sog'intirmay kela qolsangchi.
Bahor seni qumsar ko'ngillar
Dutoringni qo'lga olsangchi
Bahor dutoringni chala qol
Navosiga bulbul jo'r bo'lsin
Bahor-seni qumsar ko'ngillar
Qishning qahri taftingda o'lsin
Bodomzorlar oppoq gullasin,
Gulzorlarda gullar ochilsin,
Bahor, seni qumsar ko'ngillar.
Chehralarga quvonch sochilsin,
Quchog'ingda o'zim mast bo'lay
Kela qolgin yurtimda yashna
Bahor, seni qumsar ko'ngillar
Maftuningman mehringga tashna.

O'ZBEKISTON POSBONLARI

Temur bobom izdoshlari,
Xalqimizning mard yoshlari,
Tog' dek kelar bardoshlari.
O'zbekiston posbonlari,
Ular borki vatan ozod,
Ular borki vatan obod.
Nurli davron etar bunyod,
O'zbekiston posbonlari.
Sadoqatli mard o'g'lon,
Alpomishdek pahlavon
Yengilmaydi hech qachon
O'zbekiston posbonlari.

USTOZLARNI E'ZOZLAYLIK, DO'STLARIM

O'quvchim deb mehrimizga erishdi,
Dono qilib ko'ksimizni kerishdi,
Bizlar uchun shuncha ta'lim berishdi,
Ustozlarni e'zozlaylik, do'stlarim.
Axir ular o'rgatardi borini,
Biz kuy bo'ldik, ular chaldi torini,
Xato qilsak soldi hatto zorini.
Ustozlarni e'zozlaylik, do'stlarim,
Biz yosh edik yetaklovchi bosh bo'ldi,
Biz gul edik parvarishlab bog' qildi.
Xafa bo'lsak, ko'nglimizni tog' qildi,
Ustozlarni e'zozlaylik, do'stlarim.

ONAJONIMGA

Baxtimizga yuz yoshga kiring,
Yuz yoshda ham salomat yuring,
Onajonim, siz bizlar uchun
Har doimo ulugvor luring
Bayramingiz bilan onajon
Muborakbod etar qizingiz.
Onajonim sizga tilagim
G'am ko'rmasin sira yuzingiz.

BAYRAMINGIZ MUBORAK

Sakkizinchi mart yaqin,
Gulga burkandi dalam.
Bayramingiz muborak,
Deya ushladim qalam.
Siz uchun falaklardan,
Tillo zarlar sochilsin.
Onam deb yuraklardan,
Mehr guli ochilsin.
Oyga dars bergansiz,
Go'zallikdan bu ayon.
Farzandga onalarning,
Muhabbati bepoyon.

OO ATIRGULIM

Ochilib bunchalar go'zal bo'libdi,
Ko'rdim-u shu onda yayradi dilim.
Oyijon bir keling siz ham bir ko'ring,
Xo'p go'zal bo'libdi oq atirgulim,
Bog'imda gullarim ko'pdir xilma-xil.
Bu gul boshqachami. oldiku ko'nglim,
Ochilib u juda go'zal bo'libdi.
Bog'imda yagona oq atirgulim,
Hovliga ko'rk qo'shdi go'zal bunchalar.
Bu gulga yanada mehrim beraman,
Ammo u bir chetda yolg'iz shunchalar.
Yoniga chiroyli gullar ekaman.

YURTIMIZ BOLALARIGA

Yurtimiz gul, chechak bolalariga
Samimiy tilagim etaman in'om.
Ajdodingiz orzu etgandek bo'ling
Doimo sizlardan qolsin yaxshi nom.
Olamga bo'linglar ilm chirog'i.
Sizga havas bilan boqsin bu zamon,
Sizlar shu vatanning ko'zu qarog'i
Boshingiz doimo bo'lsinlar omon,
Qo'lda mahkam tutib o'zbek bayrog'in,
Yuksak cho'qqilarga ko'taring yana.
O'zbekiston deya iftixor bilan,
Istiqlol kunini qiling tantana.

XAYR MAKTABIM

Bolalik xotiralar chizilgan makon,
Bag'ringdan hech ketgim kelmaydi ishon.
Sen menga to'qqiz yil bo'lding qadrdon,
Ammo bugun seni men tark etarman,
Xayr maktabim deb yig'lab ketarman.
Ayrilig'im yomon bo'lar ekanda,
Bir ko'nglim g'ashlikka to'lar ekanda.
Bir ko'nglim shodlikdan kular ekanda,
Ammo bugun seni men tark etarman.
Xayr maktabim deb yig'lab ketarman.
Doim xayolimda sen bilan bo'lib,
Shirin xotiralar bag'rida kulib.
Ko'zlarim, yuzlarim quvonchga to'lib,
Seni sog'inganda she'rlar bitarman.
Xayr maktabim deb yig'lab ketarman.

MUNDARIJA

G`animat dunyoda.....	3
Yoshlikni asrang.....	3
O`zbek millati.....	4
Mushtariy.....	4
O`n beshinchi qor.....	5
Orzularim.....	6
Bahor kelsa.....	6
Xayr sinfdosh.....	7
Sen mening borlig`im, Vatan.....	8
O`zbekistonim.....	9
Bahor, seni qumsar ko`ngillar.....	10
O`zbekiston posbonlari.....	11
Ustozlarni e`zozlaylik do`stlarim.....	11
Onajonimga.....	12
Bayramingiz muborak.....	12
Oq atirgulim.....	13
Yurtimiz bolalalariga.....	13
Xayr maktabim.....	14

1800 nusxa.

ADABIY-BADIIY NASHR

Navbahor RUSTAMOVA

OQ ATIRGULIM

She'rlar

Muharrir:	Y. Ziyodov.
Texnik muharrir:	Ch. Rahmonov.
Musahhih:	Y. Ziyodov.
Sahifalovchi:	Sh. Xolmurodova.

Nashriyot litsenziyasi AI 139, 27.04.2009 yil. Terishga 12.06.2013-yilda berildi. Bosishga 30.07.2013-yilda ruxsat etildi. Bichimi 84x108_{1/32}. Times New Roman garniturasida. Ofset qog'ozida. Ofset usulda chop etildi. Shartli bosma tabog'i 0,84. Nashr bosma tabog'i 0,37. 19-2013-shartnoma. 47-buyrtma. 100 nusxada. 16 bet. Erkin narxda.

«Nasaf» nashriyoti, 180118, Qarshi shahri, Mustaqillik shohko'chasi, 22-uy.

«Qarshipoligrafnashr» MCHJda chop etildi.
180118, Qarshi shahri, Mustaqillik shohko'chasi,
22-uy.